



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

SPUJMA Y ZARYOB HIKOYALARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR VA AYOL KECHINMALARINING BADIY IFODASI

Nargiza Kabirova

O'qituvchi, PhD,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: n.kabirova.88@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: realizm, kompozitsiya, sujet, hikoyanavistlik, rang-tasvir.

Annotatsiya: Adabiyot har bir xalqning ma'naviy yuksalish darajasini ko'rsatuvchi mezon bo'lib, uning boshidan kechirgan ma'naviy-ma'rifiy tajribalarining ifodasidir. Ma'lumki, o'zida juda katta ijtimoiy kuchni mujassamlashtirgan badiiy adabiyot inson ongining o'sishiga va tafakkur doirasining kengayishiga, estetik didning shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti rivojida nasrchilik yo'nalishidagi hikoya janrining rivojlanishi, Spujmay Zaryob ijodidagi hikoyalarda oilaviy munosabatlar va unda ayolning o'rni, hikoyalarning sujeti va kompozitsiya tuzilishi afg'on realistik hikoyalardagi o'xshash jihatlar tahlil qilingan. Mazkur maqolada Afg'oniston dariyzabon adabiyotida hikoya janrining shakllanishi, unda XX asrning 60–70-yillaridan e'tiboran ushbu adabiyotning nasriy janrlari, jumladan, hikoyachilikda jiddiy rivojlanishida Spujmay Zaryob hikoyalarda jamiyat muammolarini haqqoniy ko'rsatib berish va undagi yorqin, keng ko'lamli qiyofalar, qahramonlar obrazini yaratishda, turli janriy shakllar va badiiy uslublardan foydalanish, izlanishlar kuzatiladi. Zamonaviy dariyzabon adabiyoti jamiyatdagi ayrim muammolarni, tartibsizliklarni, tengsizlik va zo'ravonlik dunyosini badiiy tasvirlashda muvaffaqiyat qozongan. Spujmay Zaryob asarlarida jamiyat hayotining turli ijobiy va murakkab ko'rinishlari, ayol kishining qanchalar mustahkam iroda sohibasi ekanligi, oilasi va farzandlari uchun har qanday ishni qilishga tayyorligi tahlilda ochib berilgan.

**ARTISTIC EXPRESSION OF FAMILY RELATIONS AND WOMEN'S EXPERIENCES
IN SPUJMAY ZARYOB'S STORIES***Nargiza Kabirova**Teacher, PhD,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words:
realism kompozitsiya, action city let
the color image.

Abstract: Literature is a criterion that shows the level of spiritual development of every nation, and it is an expression of its spiritual and educational experiences. It is known that fiction, which embodies a great social power, has an active influence on the growth of human consciousness and the expansion of the scope of thinking, on the formation of aesthetic taste. In the development of Darizaban literature of Afghanistan, the development of the narrative genre in the direction of prose, the family relations and the role of women in the stories of Spujmay Zaryob, the plot of the stories and the structure of the composition, similar aspects of the Afghan realistic stories are analyzed. In this article, the formation of the narrative genre in the Darizaban literature of Afghanistan, the prose genres of this literature since the 60s and 70s of the 20th century, including the serious development of storytelling in the stories of Spujmay Zaryob, the truthful presentation of the problems of society and the bright, large-scale the use of various genre forms and artistic styles, researches are observed in the creation of images and characters. Modern Darizaban literature has succeeded in artistically depicting certain problems, disorders, inequality and violence in society. In the works of Spujmay Zaryob, various positive and complex views of the life of the society, how strong-willed a woman is, and her willingness to do anything for her family and children are revealed in the analysis.

**ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ЖЕНСКИХ
ОПЫТОВ В РАССКАЗАНИЯХ СПУЖМАЯ ЗАРЕБА***Наргиза Кабировва**Преподаватель, PhD,**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
*реализм, состав, сюжет,
повествовательный, цветовой
образ.*

Аннотация: Литература является мериллом, показывающим уровень духовного развития каждого народа, выражением его духовного и просветительского опыта. Известно, что художественная литература, воплощающая в себе большую социальную силу, оказывает активное влияние на рост человеческого

сознания и расширение кругозора мышления, на формирование эстетического вкуса. В развитии даризабанской литературы Афганистана развитие повествовательного жанра в сторону прозы, семейные отношения и роль женщин в рассказах Спуймай Зарёб, сюжет рассказов и структура композиции, сходные аспекты анализируются афганские реалистические рассказы. В данной статье рассмотрено становление повествовательного жанра в даризабанской литературе Афганистана, прозаических жанров этой литературы с 60-х и 70-х годов 20 века, в том числе серьезное развитие повествования в рассказах Спуймая Зарёба, правдивое изложение проблем общества и яркого, масштабного использования различных жанровых форм и художественных стилей, исследований наблюдается в создании образов и характеров. Современной даризабанской литературе удалось художественно изобразить определенные проблемы, беспорядки, неравенство и насилие в обществе. В произведениях Спуймай Зарёб при анализе раскрываются различные позитивные и сложные взгляды на жизнь общества, на то, насколько волевой женщина, на ее готовность на все ради семьи и детей.

KIRISH

“O‘zbekiston va Afg‘oniston xalqlari asrlar davomida yagona madaniy – sivilizatsion makonda yashab kelgan. Azal-azaldan Amudaryoning ikki tomonida o‘zaro o‘xshash tillar, umumiy muqaddas din va mushtarak ma’naviy qadriyatlar birlashtirib turadigan xalqlar yashab kelmoqda... Afg‘on zaminida Markaziy Osiyo uyg‘onish davrining Abu Rayhon Beruniy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi ulug‘ ajdodlarimiz yashab ijod qilganlar. Bugungi kunda O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida siyosiy, savdo iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar yo‘lga qo‘yilgan...”¹. O‘zbekistonda bu mamlakatda istiqomat qiladigan turli xil xalqlarning og‘zaki ijodiyoti namunalari, uzoq tarixga ega bo‘lgan yozma adabiyot namunalari tarjima qilinmoqda, ular haqida qator ilmiy risola va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyot qalblarga orom beruvchi, insonlar ruhiyatini mulohazaga chorlovchi, hayotni rangli va rangsiz nigohlarda jonlantiruvchi ajoyib san’atdir. Bu so‘z san’ati qaysi xalq adabiyoti bo‘lishidan qat’i nazar, qalblarni junbushga keltiruvchi va insonni ruhan o‘ylashga, fikrlashga undovchi kuchdir. Quyida adabiyotning afg‘on kitobxonlari orasida yoyilishi, rivojlanishi va eng muhimi uning ilk qadamlari, ya’ni iste’dod egalari to‘g‘risida ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

Dariyzabon nasrda ham zamonaviylik, realistik yo‘nalish dastlab hikoya janrining asosida kuzatildi. Asadullo Habib, Abdulkarim Misoq, Muhammad Akram Usmon, Rahnavard Zaryob, Spujmay Zaryob, Babrak Arg‘and, Muhammad Olim Iftixor singari nasrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari janr takomili uchun katta hissa qo‘shdilar².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Afg‘oniston bo‘yicha «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqidan. 2019.

² Асоев Х. Формирование жанровые системы в прозе Афганистана на языке дари. Душанбе, “Донеш” 1988., فریابی، پویا، سبک و مکتب در ادبیات و پنج نیشته دیگر، کابل، ۱۳۶۷، فرید بیژند، نخستین داستانهای معاصر دری، کابل، ۱۳۶۷.

Иномхўжаев Р. Афғонистон дариёзабон адабиёти (XIX аср охири – XX аср). ТДШИ нашр., – Т. 2018. – 81. Б.

“Zamonaviy Afg‘oniston adabiyotiga bir nigoh” nomli asarning muallifi Muhammad Haydar Jobalni dariyzabon adabiyotning tiklanish va rivojlanish yo‘llarini aniqlashga urinib ko‘rib yozadi: “Qandaydir bir ma’noda, muallif nasriy turlarning (qisqa hikoyalar, badiialar va maqolalar) rivojlanish masalalariga qo‘l urgan. Uning fikricha, “...Eng keng tarqalgan nasriy tur, bu Mahmud Tarziy asos solgan maqola hisoblanadi...”³. Shuningdek, nasriy turning xalq orasida keng yoyilishiga, Mahmud Tarziy tomonidan tashkil qilingan “Sirojul-axbor” gazetasining roli ham katta bo‘lgan. Dariyzabon adabiyotda asosan, dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, qissalar, hikoyalar, latifalar, qo‘shiqalar kabi nasriy turlar mavjud.

Zamonaviy dariy tilining nasrini tadqiq etar ekanmiz, ularda jamiyat ichidagi muammolarni tahlil qilish chuqurlashganini, shaxsning o‘rab turgan muhit bilan o‘zaro aloqasi ko‘rsatila boshlanganini hamda asosiy qarama-qarshi sinflararo munosabatlar tasvirlanganini kuzatamiz.

Odamni ibtidodan hozirgacha bir xil tasavvur qilish mumkin emas. Chunki davrlar o‘tgan sayin insonning fikrlash salohiyati, madaniy saviyasi, ma’naviy qiyofasi o‘zgaradi. Uning qadr-qimmatini, mavqeyi har tomonlama yangilanishga uchraydi. Bugunga kelib mamlakat mustaqilligi inson manfaatlarini himoyalashni asosiy maqsadiga aylantirdi. Shu bilan birga ijodkorlar tomonidan odamni turli holatlarga solib o‘rganish, uni ifodalash, tasvirlash erkin amalga oshirilmoqda. Bu esa adabiyotda yangi obrazlar yaratish bosqichini yuzaga keltiradi.

Jumladan, 60–80-yillar hikoyachiligida yana shunday xususiyat kuzatiladiki, janr yechimi kutilmagan voqea va holatlar tasviri bilan yakunlanadi. Qolaversa, ichki kolliziyalar, ijtimoiy, falsafiy, ba’zan sof maishiy-psixologik dialoglar hikoya jozibasini yanada oshirdi. Hikoyaning badiiy konsepsiyasi ba’zi asarlarda muallif, ba’zilarida qahramon, ba’zan esa hikoyanavis nutqi vositasida badiiy bayon etildi.

Zamonaviy dariyzabon nasr vakillari inson qiyofasini har tomonlama, chuqur va yorqin tasvirlashga harakat qilib, psixologik uslubga ham murojaat etishga harakat qildilar. Ular ilgari kuzatilmagan holatlar – ichki hissiyotlarni, o‘y-xayollarni berishga va manzaralarni ko‘rsatishga urina boshladilar.

Keyingi yigirma yillikda ushbu adabiyotning sifat ko‘rsatkichi katta qadam tashladi. Bu – birinchi navbatda, yozuvchilar tomonidan jamiyat muammolari yaqqol va haqqoniy ko‘rsatib berildi va unda yorqin, keng ko‘lamli qiyofalar yaratildi, turli janriy shakllar va uslublardan foydalanildi. Bu davr adabiyoti jamiyatdagi ayrim muammolarni, tartibsizliklarni, tengsizlik va zo‘ravonlik dunyosini badiiy tasvirlashda muvaffaqiyat qozondi. Lekin afg‘on xalqining odatlari, yashash tarzi va xarakterini ifodalovchi asarlar sanoqli edi. Akram Usmon, Asadulla Habib, Karim Misoq kabi yozuvchilarning ijodida ana shunday kamchiliklarni to‘ldirishga urinishlar seziladi.

Afg‘oniston zamonaviy dariyzabon adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri Spujmay Zaryob (Rauf) (سپوچمی زریاب) 1949-yili Kobulda ma’rifatli va ziyoli inson Abdurauf Panjshiriy oilasida dunyoga kelgan. Bo‘lajak adiba Kobuldagi Malolay litseyini tugatgach, Kobul universiteti adabiyot va ijtimoiy bilimlar fakultetining fransuz tili bo‘limiga o‘qishga kirdi. Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagach, u o‘qishini Fransiyada davom ettirdi, u yerda adabiyot bo‘yicha magistrlik va qiyosiy adabiyotshunoslik bo‘yicha doktorlik ilmiy darajalarini olishga muvaffaq bo‘ldi.

O‘tkir qalam sohibasi vatanga qaytganidan so‘ng ayollar bilim yurtida fransuz tilidan dars berdi, keyin esa, Fransiyaning Kobuldagi elchixonasida tarjimon bo‘lib ishladi. Afg‘onistonda notinchliklar boshlanganidan so‘ng yozuvchi Fransiyaga muhojirat qilishga majbur bo‘ldi⁴.

O‘z ona vatanidan yiroqda bo‘lishi taniqli adibaning asarlaridan ham sezilib turadi. Spujmay Zaryob o‘z ijod namularida yurt sog‘inchini kuylab yozadi, ularda vatanparvarlik hissi yetakchilik qiladi. Uning ijod ko‘lami juda keng va mazmunli bo‘lib, asarlarida yurt sog‘inchi, ayollar obrazi, jamiyatdagi insonlarning turmush tarzi juda chuqur va ma’noli yoritilgan.

Spujmay Zaryobning asarlari haqida yozishdan avval uning shaxsiy hayoti haqida ham ba’zi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz. S.Zaryob Fransiyada o‘qishni tamomlagandan so‘ng afg‘on

³ Жобал М. Х. Негоҳе ба адабиёте мусоер дар Афғонистон. – Кобул: 1958. – 76. Б.

⁴ Rahmon Inomxo‘jayev Afg‘oniston dariyza bon adabiyoti (XIX asr oxiri – XX asr) Toshkent. 2018.206-bet.

xalqining taniqli yozuvchilaridan biri Rahnavard Zaryob bilan turmush qurgan. Ularning uchta qiz farzandlari bo‘lib, ulardan Shabnam Zaryob ismli qizi ota-ona izidan borib yozuvchi bo‘lish bilan birga kino rejissyori hamdir. Manbalarda uchraydigan ma‘lumotlarga ko‘ra, Spujmay Zaryob 17 yoshidan boshlab hikoyalar mashq qilgan⁵, hozirga qadar “Qo‘ng‘iroqlarning jarang-jurungi” (“شرننگ شرننگ زنگ ها”) hamda “Kobul sahrosi” (“دشت كابل”) nomlari bilan ikkita hikoyalar to‘plami nashr etilgan. Adibaning hikoyalari vaqtli matbuotda ham, umumiy majmualarda ham chop etilgan. Ularning ayrim namunalari chet tillariga, jumladan, fransuz va o‘zbek tillariga tajima qilingan⁶. Keyingi yillarda Spujmay roman janrida ham ijod qilib, “O‘zga bir yurtda” (“در کشور ديگر”) nomli asari 2014-yilda nashrdan chiqdi. Bu romanda Sharqdan G‘arbiy mamalakatlariga qilingan muhojirlik haqida yozilgan bo‘lib, Sharq va G‘arb mamlakatlari bir-biriga nisbatan tasvirlangan. Ushbu roman keyinchalik Eronda ham qayta nashrdan chiqarilgan. Shuningdek, Rahnavard⁷ va Spujmay Zaryoblarning mushtarak hikoyalaridan “Qor va devor yuzisadigi xaritalar” nomli majmuasi Tehronda nashr etilgan.

Spujmayning eng yangi davr Yevropa hikoyanavisligi bilan yaqindan tanishligi bora-bora uning ijodida ham o‘z aksini topdi. Bu omil ta’siri ostida yozuvchi ko‘proq qahramonlarning ruhiyatiga kirib borishga harakat qildi, uning ijodida Yevropada keng qanot yozgan modernistik tamoyillar bo‘y ko‘rsata boshladi.

“Aqldan ozgan rassom va uning ko‘m-ko‘k surati” (“نقاش ديوانه و تابلوی كبودش”) hikoyasida Spujmay bir odamning o‘z xayolida ko‘chaning rasmini chizmoqchi bo‘lganini tasvirlaydi. Bu odam o‘z xayoli bilan yashaydi, tashqi olam unga sovuq, jilvasiz, nochor ko‘rinadi. Uning xayoliy rasmi a ham shunday – ko‘cha, devorlar, odamlar sovuqdan qaqshagan, ko‘m-ko‘k ko‘rinadi. U o‘z tasavvurida odamlar bilan muloqot qiladi, odamlar unga devor bilan birlashib ketganday ko‘rinadi. Bu og‘ir xayollar poyonida u o‘ylagan rasmini chizishdan voz kechadi. Bu hikoyada yozuvchi afg‘on jamiyatining eskilik og‘ushida yashayotgani, odamlar rangsiz, ruhni ezuvchi bir xillik sharoitida hayot kechirishini qalamga olgan. Ushbu hikoya va undagi birgina odam obrazida afg‘on xalqining rivojlanishdan, yuksalishdan ortda qolayotganini, odamlar tobora o‘shish, yangilikka intilish o‘rniga tubsizlik tomon cho‘kayotganini tasvirlaydi.

O‘tkir qalam sohibasi “Bozor” (“بازار”) hikoyasida ham dunyoning haqiqiy manzarasini chizadi. Bu hikoyada hamma narsa hayotda ro‘y berayotgandek ko‘rinadi, ammo ularga g‘ayritabiiy tus beriladi.

Hikoya sujeti juda sodda. Unda voqealar roviy tili bilan bayon etiladi. Roviya, hikoyaning bosh qahramoni, bir kuni kechqurun uyidan chiqib o‘zi ilgari bilgan bozor tomon yo‘l oladi, bozorda joylashgan minoraga yaqin kelganida bozor unga boshqa kunlardagidan butunlay boshqacha bo‘lib ko‘rinadi. Bu yerda qandaydir g‘uvillagan shovqin, sarosimalik hukm surayotgandek, odamlar yugurib yurgandek, oldi-sotdi avjiga chiqqandek ko‘rinadi.

Roviya nima gapligini bilib olmoqchi bo‘ladi. Duch kelgan odamlardan “Bu yerda nima bo‘layapti?” deb so‘raydi, ammo javob ola olmaydi, hayron qoladi. Nihoyat, bir odam javob bermoqchi bo‘ladi, ammo o‘z javobi uchun oldin pul so‘raydi. Roviya bundan g‘azablanib, boshqa birovdan so‘ramoqchi bo‘ladi, ammo u ham pul talab qiladi. Roviya pul berishga rozi bo‘ladi. Shunda suhbatdoshi unga

اینجا همه چیز خرید و فروش میشود-تنها حرفها خنده ها گریه ها گوش ها اینرا نمیدانستی؟

“Bu yerda hamma narsa oldi-sotdi qilinadi – tanlar, so‘zlar, kulgilar, yig‘ilar, quloqlar, bilmasmiding”⁸ deydi. Roviya bundan hayratga tushadi, shunda suhbatdosh cho‘ntagidan bir dasta pul chiqarib uning ko‘zlari oldiga olib keladi va pullarga ishora qilib “Bu muhim, juda muhim” deydi. Mana shu qisqagina jumla gap nimadalgini ayon qiladi. Bundan keyin ham yozuvchi o‘z

⁵ <http://fa.rfi.fr>

⁶ Savr shabadalari. Afg‘oniston yozuvchilarining hikoyalari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987, B.115–124.

⁷ Кабирова Н.К. Положение женщин-главная тема сюжета рассказов Рахнаварда Зарьяба. Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире–№14-3. 2016 г. – С.108. (Google Scholar)

⁸ Inomxo‘jayev R. Afg‘oniston dariyazabon adabiyoti (XIX asr oxiri – XX asr) – T.: 2019. – B.209.

qahramonini bir qator situatsiyalarda tasvirlaydi va nihoyat, oxirgi epizodda roviy ham birov "Shaharda nima gap?" deb so'raganida o'zi kutmagan holda undan pul talab qiladi.

Yozuvchi yuqorida e'lon qilingan "Bu yerda hamma narsa oldi-sotdi qilinadi" tezisini turli epizodlar tasviri orqali mustahkamlab boradi. Masalan, bir epizodda ayol bir erkakka qiziq narsalarni gapirib kuldirmoqchi bo'ladi, ammo erkak xo'mrayganicha turadi, ayolning yalingani ham unga kor qilmaydi, pul olgach esa, kuladi, ayol gapirmasa ham xoxolab kulaveradi. Boshqa bir o'rinda vafot etgan odam uyiga to'planganlar ham beva qolgan ayol pul bermaganicha ko'z yoshi to'kmaydilar va hokazo. Bu mubolag'ali tasvirlar yozuvchining hozirgi zamon jamiyati haqidagi badiiy tasavvurini, uning bozor kabi alg'ov-dalg'ov ekani, unda hamma narsa pul bilan o'lchanishi ifodasidir.

"Bozor"⁹ hikoyasi uslub jihatidan yozuvchining boshqa asarlaridan farq qiladi. Unda hamma narsa harakatda, jonlantirilgan. Ko'cha odam bilan birga yurib borayotgandek, bozor muhitidagi minoraning panjara to'silgan tuynuklari tirik odam ko'zlaridek bozorni kuzatadi.

Yuqorida keltirilgan hikoyalardan ham bilishimiz mumkinki, Spujmay Zaryob hikoyalarning mavzu doirasi juda rang-barang va serjilodir. Ularda bugungi hayot turli yo'llar bilan har xil obrazlarda tasvirlangan. "Aqldan ozgan rassom va uning ko'm-ko'k sur'ati" hikoyasida birgina odam obrazi orqali afg'on xalqining yillar davomidagi rangsiz va nursiz hayoti tasvirlangan bo'lsa, "Bozor" hikoyasi orqali bugungi jadal rivojlanayotgan, lekin kundan kunga insonlar pul, mol-u dunyo uchun qadrsizlanayotgan hayotimiz mahorat bilan yoritilgan.

Spujmay Zaryob ijodining ilk paytlarida u an'anaviy uslubda hikoyalar yozib, jamiyatdagi norasolikni, mulkiy tengsizlik tufayli yuzaga keladigan muammolarni ko'tarib chiqqan edi. Adibning shunday hikoyalardan biri "Tilla uzuk"¹⁰ ("انگشتر طلا") deb ataladi. Ushbu hikoyada bir nochor oilaviy sharoit yoritiladi. Hikoya kichik bir asar bo'lsa-da, undagi hayotiy voqealar, turmush sinovlari, Husayn va uning onasi o'rtasidagi oilaviy munosabatlar, bir mushtipar ayolning hayot atalmish bog'ning sinovli so'qmoqlarida boshidan kechirayotgan dardli kunlari juda chuqur va mazmunli yoritilgan.

Hikoyaning bosh qahramoni farzandlariga o'zi yolg'iz boshi bilan ham ota, ham ona bo'lib oilasini boqayotgan, ro'zg'or tirikchiligini o'tkazayotgan oddiygina mehnatkash, ma'suma bir ayol, Husaynning onasi. Bu hikoyada ayolning o'rni va obrazi shunchalik sodda va samimiy qilib yaratilganki, yozuvchi unga hattoki, alohida nom ham bermagan. Biroq uning obrazi shu darajada oddiy va hech bir jimjimadorlarsiz yoritilganki, uning mana shu soxtaliklarsiz, samimiyat to'la ko'ngli, pok qalbi butun hikoyaning asl ma'nosini va mazmunini tashkil etadi.

Unga qarshi qo'yilgan obraz ma'nadan o'ta qashshoq va tuban bo'lgan boy oilaning bekasi, "semiz xotin". O'zi ayol bo'lsa-da, qalbida ayollik mehri va insoniyliги bo'lmagan bu shaxsning obraz va xarakteri asarda nursiz nigohlar bilan tasvirlangan.

Taniqli adibning ushbu hikoyasini o'qir ekanmiz, xuddi dengiz tubiga sho'ng'igan kabi beixtiyor asardagi voqealar rivojiga va undagi mungli kechinmalar og'ushiga g'arq bo'lamiz. Spujmay Zaryob ushbu hikoyani o'ziga xos mehrlil ayol ko'ngli bilan tasvirlagani bois, o'quvchi o'zi bilib bilmay ushbu asarga mahliyo bo'ladi. Asar janr jihatidan kichik bir hikoya bo'lsa-da, mazmun nuqtayi nazaridan ulkan bir roman kabidir. O'z navbatida, hikoyadan parchalar keltirib o'tamiz.

صبح بود، زن چادر داکه اشرا دور سرش پیچید و خاکروبه را از پنجره خانه در کوچه ریخت. این خانه مثل بسیاری از خانه های این شهر در کوچه تنگ و پر جمعیت قرار دارد که وقتی سر را از پنجره اش بیرون کنند تن تراش ترین تلاشها و پایان ناپذیرترین جدالها بین مرک و زنده گی دیده میشود.

"Tong otdi. Ayol ro'molini boshiga o'rab, uyning derazasidan axlatni ko'chaga to'kdi. Bu uy shu shahardagi ko'plab uylar kabi tor va gavjum joyda joylashgan bo'lib, derazadan boshingizni chiqargan vaqtingizda hayot va o'lim orasidagi eng mashaqqatli haroratlar va cheksiz mojarolar ko'rinib turardi"¹¹.

⁹ O'sha kitob. 210-b.

¹⁰ سپوزمی زریاب ویکیپدیا دانشنامه آزاد سال 1984 ص-98

¹¹ سپوزمی زریاب ویکیپدیا دانشنامه آزاد سال 1984 ص-105

Hikoyada tasvirlangan konflikt Husaynning onasi bilan semiz xotin orasida yuz beradi. Husaynning onasi odamlarning uyini tozalab, kirini yuvib bolalariga rizq topadi, ularga kiyim-kechak, daftar-qalam olib beradi. Semiz xotin esa, ishlaymaydi, uy ishlarini ham birovga qildiradi. U quv, insofsiz. Husaynning onasi kun bo‘yi uning yumushlarini qilib, ishini tugatganidan so‘ng semiz xotin uni tilla uzugimni o‘g‘irlading, deb tuhmat qiladi, xizmat haqqi bermasdan haydab soladi. Uning o‘g‘li Usmon ham onasi yoniga qo‘shilib Husaynning onasini masxaralaydi. Bu voqealar quyidagicha tasvirlanadi:

خودرا پشت در بزرگی یافت. در این خانه رخت میشت. زنجیر در را تکان داد و لحظه بعد پسر دوازده – سیزده ساله ای که لباس قیمتی و بدبوختی به تن داشت در را باز کرد. وقتی آنرا دید ابرو درهم کشید و با آواز دورگه اش صدا زد:
- بوبو... زنکه کالاشوی آمده.

زن ساکت بود. همین پسر همیشه با زبانش نیشهای دردناکی به او میزد. آزارش میداد مثل این که از این آزردن لذت مستی میبرد.

زن با قدم های شمرده پیش رفت و پرده ضخیم زیبایی را بلند کرد.

- سلام علیک...

- وعلیکم، مادر حسین چقه ناوخت آمدی...

این صدای زن چاق و چله ای بود که پیراهن در تنش تنگی میکرد و مثل آن که همه روغن ها و گوشت ها در زیر پوست چربش جمع شده بود و ادامه داد:

- برو دیگه نشی، کالای چرک در تشناب اس.

با همین جمله خورد کننده زن دانست که کار سنگین آغاز یافته.

چادری اشرا کشید، به هم پیچید. کنار در تشناب قرار داد. آستین هایشرا بالا زد.

“U katta eshik ortida edi. U bu uyda kir yuvaradi. Eshikning zanjirini silkitdi va shu payt 12 yo 13 yoshli qimmatbaho va xunuk tikilgan libosdagi bir bola eshikni ochdi. U ayolni ko‘rib, qoshlarini chimirib yoqimsiz ovozda: “Onajon, kir yuvuvchi ayol kelibdi” dedi.

Ayol jim edi (sukut saqlardi). Shu bola har doim uni tili bilan chaqib olardi, ko‘nglini og‘ritardi. Xuddi bundan o‘zi lazzat oladigandek, unga ozor berardi.

Ayol bir necha qadam tashladi va qalin, chiroyli paranjini ko‘tardi: – Assalomu alaykum.

– Va alaykum assalom, Husaynning onasi, nega buncha kech qolding?

Bu ko‘ylagi tanasiga tiqilib turadigan, go‘yo barcha yog‘lar va go‘shlar uning yog‘li terisi ostida to‘planib qolgan semiz bir ayolning ovozi edi.

U davom etdi: Bor boshqa bunday qilma. Kir kiyimlar hammomda. Ayol yeb qo‘yuvchi bu so‘zlardan og‘ir ish kuni boshlanganini bilardi.

U paranjisini yechib hammom chetiga qo‘yib qo‘ydi, yengini kotardi”¹².

Hikoyada shu tarzda voqealar rivoji davom etadi. Husaynning onasi kuni bilan uy ishlarini qiladi, tinmay kir yuvadi. Ammo “eshakning ishi halol, o‘zi xarom” deganlaridek, bechora ayol tuhmat toshlari yomg‘iri ostida qoladi. Boy xonadonning semiz bekasi uning qilgan ishlariga haq to‘lashdan qochib, uni tilla uzugini o‘g‘irlashda ayblaydi va shu yo‘l orqali uning mehnat haqqini bermaslikni mo‘ljallaydi. Husaynning onasining kiyimlarini tekshiradi, lekin uzuk topilmaydi. Uni haqoratlab, pulini ham bermay, haydab yuboradi. Vaholanki, bu ma’suma ayolning ish haqi bor yo‘g‘i yigirma afg‘oniy bo‘lib, bu pulga u o‘g‘li Husaynjonga bir nechta daftar olib bermochi edi.

Spujmay Zaryob hikoyada Husaynning onasining tuhmat balosiga yoliqqan sahnasini shu darajada yuksak mahorat bilan tasvirlaydiki, beixtiyor ko‘z ongingizda bir begunoh ayolning holati jonli tarzda gavdalanadi.

- چی کدی انگشتی ره، او زن...

مادر حسین قوایش را جمع کرد و گفت:

- اگر مه دیده باشم از دو دیده کور شوم... آخر مه ... پنج وخت نماز میخانم، خاره به یگانگی یاد میکنم ... مه چی

طور...

بغض راه گلویشرا بست. جمله اش ناتمام ماند. رنگش سفید شده بود لبانش رنگ نداشتند. مثل بید میلرزید.

سپوزمی زریاب ویکیپدیا دانشنامه آزاد سال 1984 ص-12107

– Ey ayol, uzukni nima qilding...

Husaynning onasi kuchini yig'ib dedi:

– Agar men ko'rgan bo'lsam ikki ko'zim ko'r bo'lsin... Axir men... besh vaqt namoz o'qiyman, xudoning yagonaligini bilaman... men qanday qilib...

Tomog'iga nimadir tiqildi. Gapi tugallanmay qoldi. Rangi oqargan edi, lablarida rang qolmadi. Xuddi majnuntoldek qaltirardi¹³.

Bu voqeani tasvirlar ekan, yozuvchining xayrixohligi mehnatkash ayol tomonida ekani sezilib turadi. Hikoyada bosh rollarda harakat qilgan ikki ayolga nom berilmagani bunday personajlar tipik ekaniga ishoradir.

Zamonning qattiqligi-yu, bechora ayolning yolg'izligini taqdirdan deb baholasak-da, halol mehnatlari evaziga tuhmatga qolganini adolatdan deb bo'lmaydi. Ammo ayolning sabr-u bardoshi bunga ham yetadi. Kichik bir hikoyada shuncha hayotiy haqiqatlarni yoritgan yozuvchi bu orqali ayolning qanchalik metin iroda egasi ekanligini ko'rsatib beradi. Bu kichik hikoyadagi sanoqli obrazlar orqali nafaqat insonlar tasvirlanadi, balki ularning ichki dunyosi, qay darajada toza va qay darajada tubanlik botqog'iga botib borayotgani ko'z o'ngimizda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ushbu hikoyani o'qir ekanmiz o'zbek adabiyotining durdona asralaridan bo'lmish Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani esga tushadi. Ushbu romandagi oila ham yuqoridagi hikoyamiz kabi kambag'allik daryosidan suzib o'tgan. Baxtga qarshi oila boshi Salim bo'yoqchi vafot etadi, uning vafotidan keyin ayoli Anorbibi besh farzandni boqish uchun mahalladagi boy xonadonlarda uy yumushlarini qilib ro'zg'or tebratadi. Bolalarini halol mehnat bilan boqib kun kechiradi. O'z navbatida, romandagi boshlanish voqealar yuqorida keltirilgan hikoyamizdagi voqealar bilan o'xshashdir.

XULOSA

Hikoyadagi oilaviy munosabatlar qanchalik mustahkam ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayol kishining qanchalar mustahkam iroda sohibasi ekanligi, oilasi va farzandlari uchun har qanday ishni qilishga tayyorligi namoyon bo'ladi. Hattoki, ko'tarish qiyin bo'lgan tuhmat balosiga ham chidaganligi tahsinga sazovordir. Bularning barchasi oilasi, farzandlarini jonidan ortiq yaxshi ko'rishiga yaqqol dalildir.

Ijodkorning tasvir mahorati voqelikni badiiy aks ettirish va adabiy qahramonning ruhiy holatini namoyon etishda badiiy tasvir vositalaridan qanchalik samarali foydalanilganligi bilan o'lchanadi. Spujmay Zaryob ijodida qahramonlarning ruhiy olamini yoritishda badiiy tasvir vositalarining o'rni beqiyosdir. Qahramon kayfiyati, ruhiyatini ochishda Zaryobning hikoyalarida jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash va chog'ishtirishga moyillik ko'zga tashlanadi. Shuningdek, adabiy qahramon ruhiyatini ochishda oilaviy mojarolar muhit tasviridan ham keng foydalangan. Oilaviy mojarolar shaxsni odatiy kundalik hayot qo'ynida ko'rsatishi jihatidan qulaylikka ega. Natijada hayotning har bir kichik nuqtasini ham badiiy tadqiq etish asosida personaj ruhiyatini ochish mumkin.

¹³ سپوزمی زریاب ویکپیڈیا دانشنامه آزاد سال 1984 ص-109